BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZOYEVA YULDUZ YUSUP QIZI

“MING BIR KECHA” ASARI LINGVOPOETIKASI (O‘ZBEKCHA MATNI ASOSIDA)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K:[811.512.133:81’38:821.411.21-34 (043.3)]

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Mirzoyeva Yulduz Yusup qizi
“Ming bir kecha” asari lingvopoetikasi (o‘zbekcha matni asosida)…….5

Мирзоева Юлдуз Юсуп кизи
Лингвопоэтика произведения «Тысяча и одна ночь» (на материале узбекского текста) ……..…..21

Mirzoyeva Yulduz Yusup kizi
Linguopoetics of the work “One thousand and one nights” (based on the Uzbek translation)……...…43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..…47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZOYEVA YULDUZ YUSUP QIZI

“MING BIR KECHA” ASARI LINGVOPOETIKASI
(O‘ZBEKCHA MATNI ASOSIDA)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4948 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtorefarati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Astanova Gulnora Aminovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Abuzalova Mehriniso Kadirovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «29» oktobr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D/1049 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: + 99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 -yil «14» oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «14» oktabr dagi 34 -raqamli reestr bayonnomasi).

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida adabiy matnlarning lingvopoetik tahliliga e'tibor ortib borayotgan bir davrda sharq adabiyoti durdona asarlarining badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Turli sivilizatsiyalarning madaniy hamda estetik arxetiplarini o'zida mujassam etgan klassik matnlarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday noyob hodisalardan biri "Ming bir kecha" asari hisoblanadi. Mazkur asarning badiiy va she'riy tuzilishi, ritorik vositalari hamda leksik-semantik tizimi tilshunoslik yo'nalishlarida keng qiziqish uyg'otadigan muhim tadqiqot obyektlaridan biridir.

Dunyo tilshunosligi poetika, kognitiv fan va madaniyatshunoslik bilan faol yaqinlashish bosqichi jarayonida badiiy nutqda til faoliyatining chuqur mexanizmlarini ochib berishga intilmoqda. "Ming bir kecha" asari turli yo'nalishlarda tadqiq qilingan bo'lsa-da, lingvopoetik jihatdan tizimli o'rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmaganini ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan mazkur dissertatsiya asar matnining ritmik va intonatsion tashkil etilishiga, alliteratsiya, anafora, takrorlash, ramziy tuzilmalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilishi zarurligi bilan dolzarbdir.

Mamlakatimizda lingvistika sohasida "Ming bir kecha" asarini lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari integratsiyasi doirasida tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratadi. Asarni lingvopoetik yondashuv asosida izchil tahlil qilish bugungi kunda madaniyatlararo muloqotning faollashuvi hamda til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin etish bilan bevosita bog'liqdir. "O'zbekistonda "Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik" degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tili…"[1] nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiqini amalga oshirish jahon adabiy an'analariga hurmat tuyg'usini oshirish, milliy filologik ongni shakllantirish maqsadlariga javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 989-sonli "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida", 2020-yil 29-yanvardagi 40-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

[1] Ozbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. // Toshkent, 2018-yil, 7-8-avgust. https://old.gov.uz/oz/news/view/18295

amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida “Ming bir kecha” asarini nazariy va amaliy o‘rganish ishlari dastlab IX-X asrlarda arab olimlari tomonidan boshlangan bo‘lsa, Yevropada XII asrda asarga qiziqish boshlangan edi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yevropa ilmiy muhitida mazkur asar bo‘yicha izlanishlar shakllana boshladi. “Ming bir kecha” matni lingvopoetik, semantik hamda strukturaviy-grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda, uning madaniy qatlamlari va tarjima hamda moslashuv jarayonida yuz beradigan o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan ham alohida tadqiq etila boshlandi. Sharq ertaklari poetikasiga har tomonlama yondashish, obrazlilik, metafora, rivoyat kompozitsiyasi va ularni boshqa tillarda talqin qilish kabi masalalar tilshunoslikda alohida yo‘nalishni shakllantirdi**.** Jumladan, nemis olimi E. Littmann “bin bir” iborasining turkiy tillardagi noaniq ko‘plik shakllari bilan bog‘liqligi, hamda “ming bir” iborasida yuz beradigan semantik-o‘zgarishlar, uslubiy xususiyatlar haqida o‘z qarashlarini ifoda etgan[1]. Badiiy obidaning yaratilishi hamda dunyoga tarqalish tarixi muammolari haqida yevropalik olimlar I.Estrup, Y.Xammer-Purgshtal, R.Byorton A. Shlegel[2], M.Y. de Gue[3], A. Myuller[4] tomonidan ilmiy-nazariy asoslandi. Nemis olimi M.Gerxardt[5] “Ming bir kecha” asarining badiiy qiymat va saviyasini belgilaydi. Arab tadqiqotchisi Ehson Abbos, Eron tadqiqotchisi Muhammad Ramazoniy va boshqalarning bu boradagi tadqiqotlari ham ahamiyatlidir[6].

Rus sharqshunos olimlaridan Y. Krachkovskiy[7], I. Filshtinskiy[8], B. Shidfar[9], A. E. Krimskiy, V. V. Lebedev, X. Minnegulov, N. K. Jarmagambetovlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlarni misol keltirish mumkin. Ularda “Ming bir kecha” asarining kelib chiqish tarixi, tarjimalari, sabab va mohiyatlari o‘rganilgan[10].

---

[1] Littmann E**.** Die Erzählungen aus den Tausendundein Nächten” (Insel Verlag, Leipzig 1921-1928; qayta nashr, Wiesbaden 1953-1954). https://www.booklooker.de

[2] Schlegel A.Lettre a M.le baron Silvestre de Sacy.-JA.1936 , 1. – C.575-580.

[3] Крымский А.Е. Тысяча и одна ночь. Общий историко-литературный очерк. – Москва, 1905. – С.23-24.

[4] Müller A. Zu den Märchen der 1001 Nacht.- Beiträge zur K.der indogermanischen Sprachen. Göttingen , 1988, 13, c.222-224. https://www.amazon.de 1001-Nacht-Kinderbuch-Klassiker/dp/3401049410

[5] Герхардт М. Искусство повествования. – Москва, 1984. – 455 с.

[6] Ixsan Abbas. Tarix al-adab al-arabiy. – Al-Qahira, 1960. – 480 s.(arabiy); Muhammad Ramazoniy. Hezoru yek shab. / Tadqiq va bahsi adabi va tarixi. – Tehron, 1315 h. – 540 s. (forsiy).

[7] Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. – Москва: Из-во. Акад. наук СССР. 1956. – С. 443-449.

[8] Фильштинский И.М. Арабская литература в средние века: Араб.лит. VIII–IX вв. – Москва: Наука, 1978. – 256 с.

[9] Шидфар Б.Я. От сказки к роману. // Народы Азии и Африки. – Москва: 1975.

[10] “Ming bir kecha” asari ustida yana quyidagi olimlar ish olib borishgan: Ал Фахури Ханна. История арабской литературы. / Пер. с араб. А.А.Ковалева, Г.М. Габучана. – Москва: Изд. Иност. Лит. 1956. Т.1. – С. 67.; Гаммер Пургшталь И. Об арабских сказках. – Ленинград, 1988; Горстер А.К. Литературные истории “1001 ночи”. – Москва, 1990; Крачковский И.Ю. Датский перевод “1001 ночи”. – Москва, – Ленинград, 1934; Крачковский И.Ю. Книга тысяча и одной ночи. – Ленинград, 1936; Лебедев В.В. Арабские народные сказки.

XX asr oxirlariga kelib, o‘rta asr sharq adabiyoti o‘zbek sharqshunos olimlari etiborini o‘ziga tobora ko‘proq jalb etdi. Jumladan, sharqshunoslar N.Ibrohimov, T.Muxtorov, Sh.Shomusarov[1] singari o‘zbek olimlari ilmiy ishlarida mazkur asarning estetik qimmati, uslub kategoriyasining takalluf, g‘ayriadabiy funksionallik, ornamentallik bilan taqozo etilgani, folklor bilan uzviy munosabatlarga ega ekanligi haqida fikrlar bildirilgan. XXI asrga kelib olima G.Astanova mazkur asarni XX asrdagi o‘zbekcha tarjimalari tadqiqi hamda uning o‘zbek adabiyotiga badiiy sintezi ustida fundamental tadqiqotni amalga oshirdi[2]. Biroq bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan asar tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim ilmiy maqolalar[3]ni hisobga olmaganda, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda “Ming bir kecha” asarining o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik jihatdan ilmiy tadqiq etish kabi masalalarni hal etish kun tartibiga maxsus qo‘yilmagan. Ushbu tadqiqotda mazkur yo‘nalishda yechimini kutayotgan izlanishlar olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2022-2026 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Ming bir kecha” asarining lingvopoetik xususiyatlarini belgilash, asarning o‘zbekcha matnida badiiy obraz va poetik makonni shakllantirishda lisoniy vositalarning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Lingvopoetika” tushunchasining asosiy kategoriyalari va nazariy tamoyillarini izohlash, shuningdek, “Ming bir kecha” asarini lingvopoetik tadqiqot doirasida o‘rganish zaruratini belgilovchi omillarni ilmiy jihatdan asoslash va asar matnida aks etgan madaniy-estetik ildizlarning mohiyatini ochib berish;

“Ming bir kecha” o‘zbekcha matnining leksik-semantik tizimi va nutq uslublarini tahlil qilish, leksik qatlamning milliy rang-barangligi hamda poetik semantikasini aniqlash, stilistik vositalar va leksik birliklarning badiiy-estetik funksiyalarini belgilash;

“Ming bir kecha” asari matnining sintaktik qurilishi va ritmik-kompozitsion xususiyatlarini tahlil qilish, sintaksis va ritmning matn dinamikasi hamda

---

– Москва, 1989; Форуқ Хуршид. Адва ала-с-сийар аш-шабиййа. – Қаҳира, 1964. (арабча); Шидфар Б.Я. От сказки к роману. // Народы Азии и Африки. – Москва: 1975; Эструп И. Исследование о 1001 ночи и ее составе, возникновений и развитией. / Пер. с датского Т. Ланге. – Ленинград, Изд.во.Лазаревск ин-том. вост. яз., 1904. – 204 с.; Эструп И. Исследование об истории “Тысячи и одной ночи”, ее происхождении и развитии. Перевод с датского Т. Ланге, под ред. и с предисл. проф. А. Е. Крымского. // Труды по востоковедению, издаваемые Лазаревским ин-том восточных языков, вып. VIII, Москва, 1905 ва бошқалар.

[1]Иброҳимов Н. Ўрта аср араб халқ адабиёти. – Тошкент: Фан, 1994. – 243 б.; Ибрагимов Н. Арабский средневековый героический эпос. – Тошкент: Фан, 2000. – 248 б.; Мухтаров Т.А., Шамусаров Ш.Г., Саттиева Л.И. Очерки средневековой арабской прозы. – Тошкент: Фан, 1992. – 219 б.

[2] Астанова Г. “Минг бир кеча” асари ўзбекча таржималарининг қиёсий тадқиқи : Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент: 2004. – 27 б.; Астанова Г. “Минг бир кеча” асари ва ўзбек адабиёти : Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2021. – 38 б.

[3]Nematullayeva S. Arab tilidagi somatik frazeologiyalar: “Ming bir kecha” asosida tahlil. https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/42876. Turdiyev Z. Zamonaviy tadqiqotlarda metafora va uning “Ming bir kecha” (arab xalq ertaklari)da berilishi. https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/5192

obrazlilikka ta’sirini aniqlash va ularning matn yaxlitligidagi funksiyasini belgilash;

“Ming bir kecha” asaridagi madaniy kodlar va mifopoetik timsollarni aniqlash, ularning lingvomadaniy mazmunini yoritish, timsollarning badiiy-estetik vazifasini va mifopoetik qatlamning matn talqiniga ta’sirini ko‘rsatish hamda ularning milliy va universal madaniy bog‘liqligini izohlash;

“Ming bir kecha” asarida qo‘llangan lingvopoetik vositalar tahlili hamda ushbu vositalarning matn estetik yaxlitligini, obrazlilik darajasini va lingvomadaniy mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Ming bir kecha” asarining XX asrning 60-yillardagi o‘zbekcha matnlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini lingvopoetik vositalar tizimi, obrazlilikni yuzaga chiqaruvchi lingvistik omillar, narrativ vaqt va makonni ifodalovchi lingvopoetik birliklar, kompozitsion qurilish hamda estetik ta’sir usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, tizimli tahlil, uslubiy tahlil, struktur-semantik tahlil, poetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Ming bir kecha” asari matnining lingvopoetik tabiati fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarning poetik-semantik funksionalizatsiyasi asosida ochib berilib, rivoyat diskursining ichki poetik yaxlitligi takror, inversiya, anafora va sintaktik parallellik kabi stilistik-kompozitsion vositalarning tizimli qo‘llanishi orqali ta’minlanishi asoslangan;

asarning o‘zbekcha matnida badiiy-estetik mazmunning shakllanish mexanizmlari aniqlanib, ritm, obrazlilik, metaforik ko‘chish, sintaktik parallellik hamda boshqa lingvopoetik vositalarning matnning struktur-semantik va pragmatik yaxlitligini ta’minlash, ekspressivlik va estetik ta’sirni kuchaytirishdagi funksional imkoniyatlari dalillangan;

“Ming bir kecha” matnida til va madaniyatning o‘zaro determinatsiyasi lingvopoetik yondashuv asosida tadqiq etilib, o‘zbekcha matnda voqelangan lingvomadaniy va madaniy-konseptual kodlar, mifopoetik timsollar, ramziy birliklar hamda obrazlarning semantik-pragmatik xususiyatlari, ularning xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlar tizimi va etnomadaniy tajribani verbalizatsiya qilishdagi roli aniqlangan;

“Ming bir kecha” asarining syujet-kompozitsion qurilishida namoyon bo‘luvchi poetik simmetriya, kompozitsion parallelizm va strukturaviy muvozanatning lingvopoetik funksiyalari aniqlanib, personajlar nutqining obraz yaratish, xarakterologik, emotsional-ekspressiv va pragmatik-semantik imkoniyatlari hamda o‘zbekcha matnda shakllangan lingvopoetik-kompozitsion strukturaning badiiy-estetik yaxlitlikni ta’minlashdagi roli isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Ming bir kecha” asarining o‘zbekcha matnida ifodalangan lingvomadaniy birliklar, madaniy-konseptual kodlar, milliy-madaniy obrazlar va ramziy ma’nolarni aniqlash hamda izohlash uchun amaliy tahlil materiallari tizimlashtirilgan;

tadqiqot natijalaridan o‘zbek tili va adabiyoti, matnshunoslik, stilistika, lingvopoetika, lingvomadaniyatshunoslik va badiiy tarjima fanlarini o‘qitishda,

shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlari mazmunini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlari ishlab chiqilgan;

tadqiqotda aniqlangan lingvopoetik vositalar va ularning funksional-semantik xususiyatlari asosida badiiy matnni kompleks lingvopoetik tahlil qilishning amaliy modeli taklif etilgan hamda undan badiiy asarlarning o‘zbekcha tarjimalarini lingvistik va estetik jihatdan tadqiq etishda foydalanish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil qilingan matnlarda qo‘llanilgan poetik vositalar tizimli va asosli ravishda tanlab olingan matnlar asosida o‘rganilganligi, rivoyat uslubi, badiiy ifoda vositalari va semantik qatlamlar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilganligi, lingvistik va stilistik metodlar, semantik tahlil, struktura va funksiya yondashuvlariga asoslangan holda izchil natijalarga erishilganligi, olingan xulosalarning boshqa ilmiy manbalar bilan solishtirilganligi, nazariy qarashlarning amaliy misollar bilan dalillanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvopoetika, stilistika, matnshunoslik hamda madaniy-semiotik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, badiiy nutqni tahlil qilishda estetik mezonlarga tayangan holda yondashishning yangicha nazariy asoslarini taklif etadi. Bu esa tilshunoslik va adabiyotshunoslik oralig‘idagi tahlil uslublarini boyitadi hamda poetik tafakkurda milliylik va obrazlilikni o‘rganish uchun metodologik poydevor yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati badiiy matnlar bilan ishlashda stilistik va semantik tahlil mezonlarini shakllantirish, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash, jumladan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek lingvokognitologiyasi”, “Nutq madaniyati asoslari” fanlari bo‘yicha yaratilgan va bundan keyin yaratiladigan darslik va qo‘llanmalar uchun nazariy asos sifatida foydalanish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, filologiya yo‘nalishidagi talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltiruvchi metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvopoetik tahlilning amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytiradi va badiiy matnning chuqur mazmuniy qatlamlarini ochib berishga ko‘maklashadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

“Ming bir kecha” asari matnining lingvopoetik tabiati fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarning poetik-semantik funksionalizatsiyasi asosida ochib berilib, rivoyat diskursining ichki poetik yaxlitligi takror, inversiya, anafora va sintaktik parallellik kabi stilistik-kompozitsion vositalarning tizimli qo‘llanishi orqali ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani (2022-2023y.y.) amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 11-iyundagi 909-son ma’lumotnomasi). Natijada, mobil ilovada badiiy matnlardagi so‘zlar va ifodalar lug‘atini yaratish hamda badiiy terminlar korpusini shakllantirishda dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalarga tayanilgan;

asarning o‘zbekcha matnida badiiy-estetik mazmunning shakllanish mexanizmlari aniqlanib, ritm, obrazlilik, metaforik ko‘chish, sintaktik parallellik hamda boshqa lingvopoetik vositalarning matnning struktur-semantik va pragmatik yaxlitligini ta’minlash, ekspressivlik va estetik ta’sirni kuchaytirishdagi funksional imkoniyatlari kabi ilmiy-nazariy qarashlaridan F3-2019081773-raqamli “Musiqa va san’at o‘quv muassalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda (2021-2023y.y) foydalanilgan. (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 13-iyundagi 1/04-259-son ma’lumotnomasi). Natijada, bolalar raqslarida sharq xalqlari raqs san’atini milliy uyg‘unlikda ifoda etishning nazariy asoslarini yoritishda qo‘llanilgan;

“Ming bir kecha” matnida til va madaniyatning o‘zaro determinatsiyasi lingvopoetik yondashuv asosida tadqiq etilib, o‘zbekcha matnda voqelangan lingvomadaniy va madaniy-konseptual kodlar, mifopoetik timsollar, ramziy birliklar hamda obrazlarning semantik-pragmatik xususiyatlari, ularning xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlar tizimi va etnomadaniy tajribani verbalizatsiya qilishdagi roli singari fikr-mulohazalardan Buxoro viloyat teleradiokanalining 2024-2025-yillarda “O‘zlikni anglash” hamda “Buxoro” radiosining “Najot-bilimda”, “Ijod zavqi” ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan (“O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro viloyat teleradiokanali” davlat muassasasi”ning 2025-yil 17-iyundagi 01-09-128-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (shu jumladan, 8 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va 12 jadvaldan iborat. Ishning umumiy hajmi 137sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ming bir kecha” asarining lingvopoetik tadqiqi: nazariy asoslar va badiiy til xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, uch

fasldan tashkil topgan. Bobning ***“Lingvopoetika tushunchasi va uning asosiy kategoriyalari”*** deb nomlangan birinchi faslida mazkur tushuncha nazariy aspektda o‘rganilganlik darajasi yoritiladi.

Badiiy matnni filologik tahlil qilish, til vositalari va ularni adabiy kontekstdagi estetik faoliyatini hisobga olmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Matnning badiiy tuzilmasini yaratishda barcha til darajalari elementlari ishtirok etsada, yetakchi rol so‘zga tegishlidir. Bu tilning markaziy birligidir, uning atrofida filologiya fanining boshqa elementlari va kategoriyalari shakllanadi.

So‘zning badiiy adabiyotdagi cheksiz imkoniyatlari haqidagi tadqiqotlarni A. A. Potebnya, G. O. Vinokur, V. V. Vinogradov, L. V. Shcherba, O. S. Axmanova kabi rus filologlari boshlab berishgan bo‘lsa,[1] V.V.Odinsov, I.R.Galperin, O.I.Maskalskaya, L.M.Loseva, Y.M.Lotman, Z.Y.Turayeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi rus tilshunos olimlari tomonidan davom ettirildi[2]. Shuningdek, mazkur masalada xorijiy olimlar, xususan, Praga lingvistik maktabi va “yangi tanqid” oqimi vakillari o‘z fikrlarini bildirishgan[3]. So‘z badiiy kontekstga qo‘shilganida o‘ziga xos maqomga ega bo‘ladi. U nafaqat real haqiqatga murojaat qiladi, balki muallif tomonidan yaratilgan badiiy olamga ham tegishli bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika nisbatan yangi, biroq jadal rivojlanayotgan soha bo‘lib, badiiy matnni uslubiy va semantik tahlil qilish prinsiplari bilan birga, kognitiv-semiotik va korpus yondashuvlarini birlashtiradi. Bu sohadagi olimlardan R. R. Bobokalonov, P. A. Qurbonov, I. M. Mirzaaliyev, M. Mahmudova, M. Yo‘ldoshev, N. Adizovalarning ilmiy tadqiqot ishlarini qayd etish zarur.[4]

Tilshunos olimlar fikriga tayangan holda badiiy matnni tahlil qilishda e’tiborga olish lozimki, so‘z bir vaqtning o‘zida bir nechta darajada faoliyat ko‘rsatadi: semantik, metasemiotik va lingvopoetik. Har bir daraja o‘ziga xos tahlil turini talab qiladi. Dastlabki ikki daraja lingvostilistika sohasiga taalluqlidir va so‘zning to‘g‘ridan - to‘g‘ri semantik mazmuni bilan unga yuklangan konnotativ, ifodaviy-emotsional tuslarning farqlanishi bilan bog‘liq. Lingvopoetik daraja esa

---

[1]Виноградов В. О языке художественной литературы. – Москва: Гослитиздат,1959. – 656с. https://danefae.org/lib/vvv/ojax . Винокур Г.О. О языке художественной литературы: Учеб. пособие для филол. спец. вузов / Сост. Т.Г. Винокур; Предисл. В.П. Григорьева. – Москва: Высш. шк., 1991. – 448 с. http://library.lgaki.info:404/2017

[2] Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент, 2009. 41-б.

[3] Praga strukturalizmi (1926) Chexoslovakiyaning poytaxti Praga shahrida tashkil topdi. Ayni strukturalizm umumiy tilshunoslikda funksional lingvistika nomi bilan ham yuritiladi. Ushbu maktabning funksional tilshunoslik deb atalishi asosida til birliklarining har biri muayyan funksiyaga egaligi, ulaming tilda (nutqda) muayyan vazifani bajarish g‘oyasi yotadi. Funksional lingvistika maktabi vakillari: V. Matezius, B. Tmka, I. Vaxek, B. Gavranek, N.S. Trubetskoy, R.O.Yakobson, S.I.Karsevskiy va boshqalar. https://www.renessans-edu.uz/

[4] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Тошкент: Fan, 2006. ─ 189 b. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Тошкент: Fan, 2008. ─ 156 b. Bobokalonov R.R. Kanonik modelli fransuzcha-o‘zbekcha gaplarning sistem-struktural, lingvodidaktik va komparativ tahlili. Filol. fan. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 38 b. Qurbonov P.A. Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fanl. fals. dokt. (PhD) … disser. avtoref. – Termiz, 2023. – 38 b. Mirzaaliyev I.M. “Semantika va stilistika qadimgi turk maqollari (Divanu lug‘ati-t-turk materiallari asosida)”. Filol. fan. fals. dokt. (PhD) … disser. avtoref. – Toshkent, 2020. – 40 b. Mahmudova M. Yapon va o‘zbek tillari somatik frazeologizmlarining chog‘ishtirma tahlili (lingvomadaniy aspekt). Filol. fan. fals. dokt. (PhD) …disser. avtoref. – Toshkent, 2017. – 34 b. Adizova N. “Erkin Vohidov dostonlarining lingvostilistik va milliy-madaniy xususiyatlari”. Filol. fan. fals. dokt. (PhD) … disser. avtoref. – Buxoro, 2023. – 28 b.

so‘zning murakkab estetik xususiyatlarini ochib beradi, bu xususiyatlar asarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni, ichki tuzilmasi va badiiy konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Lingvopoetik tahlilning vazifasi so‘zning badiiy diskurs doirasida qanday o‘zgarishini aniqlash va matnning estetik kuchini ta’minlaydigan tuzilmaviy mexanizmlarni ochib berishdan iboratdir. Shu bilan birga, til birliklarining yuqorida tilga olingan uch darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sir masalasi ham muqarrar yuzaga chiqadi. Semantik daraja til birliklarini ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosida tahlil qilishni anglatadi va ularni matnning qurilish materiali sifatida ko‘radi. Metasemiotik darajaga ko‘tarilar ekan, tadqiqotchi tildan tizim sifatida emas, balki nutqda amalga oshgan ko‘rinish sifatida foydalanadi, bu bosqichda ifoda kontekstida yuzaga keladigan qo‘shimcha ma’no qatlamlariga alohida e’tibor qaratiladi. Aynan shu bosqichda konnotatsiyalar va assotsiativ bog‘lanishlar aniqlanadi, bu esa til birliklarining asosiy ma’nosini boyitadi.

Uch darajali tahlil aniq badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini batafsil o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, matnning hikoya tuzilmasini ajratib ko‘rsatishni ko‘zda tutmaydi. Bu usul doirasida tahlil ketma-ketlikda uch bosqichda amalga oshiriladi. Avval matnda ishtirok etayotgan til birliklarining semantik xususiyatlari o‘rganiladi, so‘ngra ularning metasemiotik xususiyatlari emotsional-ifodaviy va baholovchi tuslari, ya’ni so‘zning konnotativ salohiyatini shakllantiruvchi jihatlari tahlil qilinadi. Yakuniy bosqich metasemiotik yoki lingvopoetik tahlil bo‘lib, u badiiy kontekstda stilistik jihatdan belgilangan til elementlarining estetik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.[1]

Bobning ikkinchi fasli ***“Arab mumtoz adabiyoti badiiy tilining xususiyatlari”*** deb nomlanadi. Arab ertak nasri og‘zaki xalq an’analari, yuksak she’riyat, ritorika va badiiy nasr elementlarini o‘zida mujassam etgan noyob madaniy va adabiy hodisa hisoblanadi.

Arab klassik adabiyotining badiiy tili asrlar davomida og‘zaki an’ana, diniy matnlar, falsafiy risolalar va she’riy amaliyot ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, arab dunyosining lingvopoetik makonida chuqur iz qoldirgan. Bu tilning o‘ziga xosligi yuqori darajadagi formallashtirilganlik, ifodaviylik, troplar va nutq figuralariga boylik, shuningdek, arab-musulmon dunyoqarashiga singib ketgan madaniy kodlar bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ajralib turadi.

Arab folklorida epik rivoyatlar muhim o‘rin egallaydi, ular orasida afsonaviy shoir va jangchi Antara ibn Shaddod haqidagi rivoyatlar to‘plami – “Sirot Antar” alohida ajralib turadi. Bu hikoyalarda qahramonlik epopeyasi, romantika va didaktika elementlari uyg‘unlashgan bo‘lib, ularning lingvopoetik xususiyatlari giperbolalar, gipotekstik sintaktik tuzilmalar va kontrastli metaforalardan foydalanishda namoyon bo‘ladi[2].

Arab folklorida xalq og‘zaki rivoyatlari muhim rol o‘ynaydi. Eng mashhur rivoyat to‘plamlaridan biri – “Sirot az-Zohir Baybars” bo‘lib, “ u shunday dedi...”,

[1] Ахманова О.С. О принципах и методах лингвостилистического исследования. – Москва: Изд-во МГУ, 1966. – 176 с. Задорнова В.Я. «Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования» Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Москва, 1992. – 22 с.

[2] Гибб Х.А.R. Арабская литература. Классический период. – Москва: Изд. вост. лит, 1960. – 187 с.

“va bu shunday bo‘ldi...” kabi takrorlar ohang effektini yaratadi va matnning eshitilishini osonlashtiradi[1].

Alohida e’tiborga sazovor yo‘nalishlardan biri bu tasavvufiy she’riyat bo‘lib, arab adabiyotida u Ibn al-Forid va al-Busiriy kabi mualliflar ijodi orqali namoyon bo‘lgan. Tasavvufiy matnlarning lingvopoetik xususiyatlari murakkab ramziylik, ko‘pma’nolilik va maxsus poetik usullar, xususan, antonimlar bilan metaforik o‘yin (fano va baqo – yo‘q bo‘lish va abadiylik, nur va zulmat) orqali ifodalanadi. Ushbu she’riyatning muhim belgilaridan biri bu duo va ibodat ohangini beruvchi anaforik tuzilmalar qo‘llanishidir[2].

Arab folklori lingvopoetikasi ko‘p jihatdan elluziyalar va intertekstual bog‘lanishlarga tayanadi, bu ayniqsa topishmoqlar, maqollar va hikmatli rivoyatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Eng qadimiy namunalaridan biri afsonaviy hiylakor Juhoga oid hikoyalar lavhalari bo‘lib, bu rivoyatlar didaktikani satira elementlari bilan birlashtiradi[3].

Bu lingvopoetika shakllanishida Qur’on, qadimgi ritorika va og‘zaki xalq ijodi asosiy ta’sir omillari bo‘lib xizmat qilgan. Ularning o‘zaro ta’siri quyidagi xususiyatlarni belgilab bergan: boy metaforika, ritmik ifodalilik va uslubiy ko‘p qirrali tuzilma. Arab badiiy so‘z san’atining kuchi va mahoratini yaqqol ko‘rsatib beruvchi eng yorqin namunalaridan biri bu “Ming bir kecha” asaridir. Unda ertak motivlari, falsafiy mulohazalar va klassik arab ritorikasi unsurlari uyg‘unlashgan holda mujassam etilgan.

Birinchi bobning uchinchi fasli ***“Ming bir kecha” asari lingvopoetik tahlil obyekti sifatida”*** deb nomlangan. “Ming bir kecha” asarining kompozitsion tuzilishi, tarixiy-madaniy konteksti va jahon adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, uning lingvopoetik xususiyatlari nisbatan kam o‘rganilgan. Biroq qator arabshunoslar va adabiyotshunoslar ushbu matnning tilga oid xususiyatlari, uslubiy tuzilmasi, rivoyat strukturalari va poetik elementlariga alohida e’tibor qaratgan.“Ming bir kecha”ga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularning asosiy e’tibori asarning adabiy, tarixiy-madaniy va folklorik ahamiyatiga qaratilgan. Ko‘pchilik tadqiqotlar bu majmuaning kelib chiqishi, kompilatsion tuzilmasi, janr xususiyatlari, syujet kompozitsiyasi, motiv tashkiloti va arab ertak an’analarining jahon adabiyotiga ta’sirini tahlil qiladi[4].

Shu sababli, mazkur asarni lingvopoetik aspektda o‘rganish dolzarb hisoblanadi, chunki bu orqali matnning til jihatdan tashkil topish qonuniyatlari, ifoda vositalari, badiiy obrazlilik yaratish mexanizmlari hamda arab mumtoz adabiyotiga xos bo‘lgan so‘z san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu asarning tovush tizimida ritm, alliteratsiya, assonans va evfoniya muhim rol o‘ynaydi, bu esa matnga o‘ziga xos ohang bag‘ishlaydi.

---

[1] Badaviy M. Coleridge: Critic of Shakespeare //Cambridge University Press, 1973.

[2] Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – Москва: Алетейа, 2-е изд., 2000.

[3] https://jps.org/books/folktales-of-joha

[4] Olima G.Astanova “Ming bir kecha” asari o‘zbekcha tarjimalari ustida ilmiy tadqiqot ishini olib borar ekan, asarning XX asrda diyorimizda amalga oshirilgan uch tarjimasi – birinchisi, 1912-yilda Ahror Mahdum tomonidan hamda ikkinchisi, o‘sha yilda Sidqiy Xondayliqiy tomonidan amalga oshirilgan forsiydan qilingan tarjimalari, 1960-yilda esa bir guruh arabshunos olimlar tomonidan arabiydan amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimalari xususida batafsil ma’lumot berib o‘tgan. Qarang: Астанова Г. А. “Минг бир кеча” асари ўзбекча таржималарининг қиёсий тадқиқи : Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент: 2004. – 27 б.

Matnda metaforalar, epitetlar, timsollar va barqaror she’riy formulalar faol qo‘llanilgan bo‘lib, ular badiiy obrazni shakllantiradi va hikoyalarga muayyan kayfiyat bag‘ishlaydi. Takror, inversiya, parallelizm va anafora nafaqat matnning ritmik tuzilmasini kuchaytiradi, balki ifoda vositalari sifatida uning uslubini belgilaydi. Dialoglarning o‘ziga xosligi va qahramonlarning nutqiy tavsifi uslublari orqali hikoya qilish texnikasi va asarning estetikasi ochib beriladi.

Dissertatsiyaning **“Ming bir kecha” asari o‘zbekcha matnining lingvostilistik va mifopoetik makoni”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch faslni o‘z ichiga oladi. **“*Ming bir kecha” asari o‘zbekcha matnining leksik-semantik tizimi va nutq uslublari*“** deb nomlangan bobning birinchi faslida har xil uslubiy registrlarni tahlil qilish uchun besh xil janrga oid ertaklar tanlab olindi: a) qahramonlik-epik (“Umar ibn an-Numon”), b) sarguzasht-sayohat (“Sindbod sarguzashtlari”), d) ayyorona (“Ali Zaybak va ayyor Dalila”) va romantik (“Ali Shor va Zumrad”), c) fantastik-maishiy va didaktik ertak (“Kanizak Tavaddud hikoyasi”). Har bir janr o‘ziga xos leksik-semantik tizim, metasemioetik belgilar va original muhit usullarini namoyish etadi.

O‘zbek olimi M. Yo‘ldoshev “Badiiy matnning lingvopoetik kuchi so‘zning ko‘p qirrali ishlatilishida, u orqali muallifning estetik niyati yuzaga chiqishida namoyon bo‘ladi”[1] deya ta’kidlaydi. Bu fikr “Ming bir kecha” tiliga to‘la mos keladi. Unda har bir leksik birlik nafaqat predmetni nomlaydi, balki muallifning badiiy dunyoqarashini ham ifodalaydi. Shuningdek, mifopoetik qatlamni hosil qiluvchi so‘zlar – “jin”, “afsun”, “taqdir”, “osmon”, “qismat” singari birliklar asar tilida alohida semantik maydon yaratadi. Bu maydon orqali sharqona dunyoqarash, inson va taqdir munosabatining falsafiy talqini ifodalanadi. Asarning o‘zbekcha matnida bu birliklar o‘z ma’naviy-estetik og‘irligini yo‘qotmagan, aksincha, o‘zbek o‘quvchisiga yaqin ma’nodagi so‘zlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Leksik - semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Ming bir kecha” asari tilining poetik kuchi uning so‘z boyligida, ma’no qatlamlarining chuqurligida, ramz va timsollarning estetik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. So‘zning estetik qiymati matn ichida nutqning ohangdorligi, ritm va parallelizmlar bilan mustahkamlanadi. Shu bois “Ming bir kecha” asari leksik-semantik tizimi lingvopoetik tahlil uchun eng boy va dolzarb manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli ***“Asar matnining sintaktik va ritmik xususiyatlari”*** deb nomlangan. “Ming bir kecha” asaridagi sodda, qo‘shma, murakkab gaplar, dialoglar va monologlar tahliliga e’tibor qaratsak, bunda:

1.1.- jadval

Sodda gaplar -	Harakatni tezlashtiradi
Qo‘shma gaplar -	Tafsilot, kechinma beradi
Murakkab gaplar -	Ruhiy holat ochiladi
Dialog gaplar -	Qahramon xarakteri ochiladi
Monolog gaplar -	Ichki kechinma beriladi.

[1] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Тошкент: Fan, 2006. –113 b

“Ming bir kecha” matnida gap turlari o‘zaro muvofiq tarzda birlashib, badiiy ta’sirni hosil qiladi. Harakat sahnalarida qisqa, sodda gaplar rivoyat ritmini tezlashtiradi; tafsilot sohalarida esa qo‘shma gaplar muhitni kengroq ochib beradi. Murakkab sintaktik konstruktsiyalar esa qahramonning ichki kechinmasini va tadqiqiy mulohazani yetkazishga xizmat qiladi. Dialoglar xarakterizatsiyani jonlantirar ekan, monologlar esa o‘quvchining ruhiy olamini bosib oladi. Shu tariqa, sintaktik-formal vositalar ritmik-melodik tizim bilan uyg‘unlashib, asarning lingvopoetik strukturasini tashkil qiladi.

“Ey parvardigor, ey razzoq, xoxlagan kimsanga hisobsiz rizq berasan! Yo Olloh, hamma gunohlarimni kechir. Ey, parvardigor, qudrating va hukminga qarshiligim yo‘q. Sen har bir ishga qodirsan. Sen kimni xoxlasang boy qilasan, kimni xoxlasang faqir qilasan, kimni xoxlasang aziz, kimni xoxlasang xor qilasan. Sha’ning qanday ulug‘, saltanating qanday kuchli, tadbiring qanday yaxshi!”[1] (Sindbod bahriy hikoyatidan parcha).

Bu parcha monologik nutq asosida qurilgan bo‘lib**,** undov gaplar, sodda gaplar va qo‘shma gaplarning ketma-ketligidan iborat sintaktik zanjirni tashkil etadi. Ushbu parchada undov gaplar (emosional-ekspressiv yuklama) dan keng foydalanilgan. Masalan: “Ey parvardigor, ey razzoq!” “Yo Olloh, hamma gunohlarimni kechir.” “Sha’ning qanday ulug‘!”

Undalmalar: “Ey, parvardigor”, ”Ey, razzoq!”, “Yo, Olloh” tarzida ketma-ket ishlatiladi. Undalma + kesim konstruktsiyasi ustunlik qiladi. Kesimlar ko‘pincha buyruq-istak maylida: “kechir”.

Lingvopoetik vazifasi emotsional kuchni oshiradi, iltijo va tazarru’ ohangini kuchaytiradi, o‘quvchining ruhiy sezgisiga bevosita ta’sir qiladi. “Sen har bir ishga qodirsan.” Ushbu parcha tuzilishga ko‘ra sodda gap shaklida bo‘lib, ega – *“sen”,* kesim – *“qodirsan”.*

Hikoyatdagi qo‘shma gaplarning parallel konstruktsiyasiga ahamiyat bersak, “Sen kimni xohlasang boy qilasan, kimni xohlasang faqir qilasan, kimni xohlasang aziz, kimni xohlasang xor qilasan.”

Parallel strukturali qo‘shma gap - har bir qism bir xil qurilishga ega: to‘siqsiz ergash gap + bosh gap.

Takroriy sintaktik sxema: “kimni xohlasang” + [holat] “faqir qilasan”.

Lingvopoetik vazifasi: Ritmik parallelizm hosil qiladi. Ilohiy qudratning cheksizligini kuchaytiradi. Antitezani yuzaga keltiradi:

boy ↔ faqir

aziz ↔ xor

Bu esa matnning poetik simmetriyasini hosil qiladi.

Nominal (kesimsiz) gaplar sintaksisi. Masalan, “Shaning qanday ulug‘!” “Saltanating qanday kuchli!” “Tadbiring qanday yaxshi!”

Murakkab qo‘shma gap asar matnining xarakterli xususiyatlaridan biri bu hikoyalarda murakkab qo‘shma gaplarning ko‘pligidir. Bir nechta fikrlarni ketma-ket bog‘lab turuvchi uzun gaplar sharqona rivoyat uslubining silliqligi va uzluksizligini ta’minlaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli ***“Madaniy kodlar va mifopoetik timsollar talqini”*** deb nomlangan. “Ming bir kecha” ertaklarining o‘zbekcha matnida

[1] Минг бир кеча. Араб эртаклари. / Арабчадан Ю.Ҳакимжонов тарж. – Тошкент: Ўздавнашр, 1962. 8 жилдлик. Ж. 5. – 461 б.

madaniy kodlar va mifopoetik timsollar boy qatlam tarzida yashiringan bo‘lib, ular mazmuniy va badiiy jihatdan muhim vazifani bajaradi. Bu timsollar – diniy-falsafiy elluziyalardan tortib, tabiat, hayvonlar va rang obrazlarigacha – bayon ichiga singdirilgan. Ular matnga joziba baxsh etadi va sharq madaniy dunyoqarashi hamda mentalitetini aks ettiradi.

Asardagi diniy motivlar va falsafiy hikmatlarning ko‘pligi o‘rta asr sharqining axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. Eng avvalo, xudoni eslash va ilohiy adolatga ishonch har bir ertakdagi qahramonlarning nutqini qamrab olgan. Qahramonlar og‘ir paytda tangriga iltijo qilishadi, undan yordam so‘rashadi yoki uning nomini oliy axloqiy mezon sifatida tilga olishadi. Bunday iboralar islom sivilizatsiyasining madaniy kodi sifatida xizmat qiladi.Ular didaktik yuklamaga ega bo‘lib, inson hayotidagi voqealar tasodifiy emas, balki xudoning irodasi bilan sodir bo‘lishi va adolat oxir-oqibat ilohiy kuch orqali qaror topishini uqtiradi.

Masalan, “Dono tabib Dubon va podshoh Yunon haqidagi ertak”da ilohiy jazoga ishonch asosidagi ochiq ogohlantirish yangraydi. Aybsiz tabib podshohdan o‘zini ayamaslikni iltimos qilganda, u diniy dalil keltiradi: “Meni tirik qoldir, Tangri senga umr beradi. Meni o‘ldirma, Xudo seni o‘ldiradi”[1]. Bu so‘zlarda sharqona ruhdagi taqdirga bo‘ysunish mujassam. Tangrini ikki marotaba nomlaydi (qolaversa, Tangri va Xudo so‘zlarining sinonimik ishlatilishi e’tiborga molik), bu esa begunohni o‘ldirish gunohi uchun jazoning muqarrarligini ta’kidlaydi. Bu iqtibos matndagi diniy-falsafiy kodning yorqin namunasi bo‘lib, qahramon shunchaki shaxsiy iltimos emas, balki umumiy axloqiy jazo tamoyilini ifodalaydi.

“Ming bir kecha” ertaklarida tabiat hodisalari timsollari ham muhim rol o‘ynaydi. Tabiat bu ertaklarda shunchaki fon emas, balki syujetda faol ishtirok etuvchi obraz bo‘lib, ko‘pincha ramziy ma’noga ega bo‘ladi. Asardagi baliqchi haqidagi ertakda “Bir pastda yeru osmonni tutun bosib ketdi[2]”. Bu yerda biz kuchaytirilgan tabiat hodisasi (quyuq tutun) tasvirini ko‘ramiz, u ramziy ma’noda xizmat qiladi osmon va yer orasidagi kosmik tartibni buzadi, yuqori va past oraliidagi chegarani yengadi. Bunday tasvirlar mifopoetik timsollarga borib taqaladi. Dovul, zilzila, quyosh tutilishi ko‘pincha afsonalarda maxluqlar chiqishi yoki tangrilar azabi bilan boliq bo‘ladi. Hikoyalardagi bunday metaforalar kitobxonga yorug‘likning bir zumda yo‘qolishini jonli tasavvur qilishga imkon beradi. Shu tabiiy metafora orqali ongda yovuzlik zulmati bilan borliq assotsiatsiya yuzaga keladi.

“Ming bir kecha”dagi diniy-mifologik ramzlar, tabiat va ranglar timsollari, afsonaviy personajlar, qadimiy nutq uslubi va hatto tasavvur olamiga xos detallar (masalan, sehrli hayvonlar yoki sirli taqdir) – barchasi asarning betakror ohangini o‘zbek kitobxoniga yetkazilgan. Shuning uchun asarning o‘zbekcha nusxasi faqat matn emas, balki madaniyatlararo ko‘prik vazifasini bajargan.

